

## SAID AHMAD HIKOYALARIDA SHAXS KONSEPSIYASINING BADIY TALQINI

**Nortoziyeva Nilufar Faxriddin qizi**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti,**

**O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427703>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasining badiiy talqini haqida so‘z boradi. “Qorako‘z Majnun”, “Ot bilan suhbat”, “Azroil o‘tgan yo‘llarda” kabi hikoyalari shaxsning ruhiy olami, tarixiy xotira, ijtimoiy bosim va axloqiy tanlov masalalarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqolada badiiy detal, ramziy obraz, konflikt, portret va nutq individualligi vositasida shaxsning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi ochilishi asoslangan. Shuningdek, Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasi insonparvarlik, milliy qadriyatlar va vijdon mezonini bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Hikoya, shaxs konsepsiyasi, psixologizm, badiiy detal, axloqiy tanlov, tarixiy xotira, milliy qadriyat.

## ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF PERSONALITY IN SAID AHMAD’S SHORT STORIES

**Nortoziyeva Nilufar Faxriddin qizi**

**First-year Master’s Student in Uzbek Language and Literature, Faculty of**

**Humanities, Chirchiq State Pedagogical University**

**Abstract:** This article discusses the artistic interpretation of the concept of personality in Said Ahmad’s short stories. The stories such as “*Qorako‘z Majnun*,” “*Conversation with a Horse*,” and “*On the Roads Where Azrael Passed*” are analyzed in terms of the representation of the individual’s inner world, historical memory, social pressure, and moral choice. The article substantiates how the spiritual and moral image of a person is revealed through artistic details, symbolic characters, conflict, portrait, and the individuality of speech. Furthermore, it is shown that the concept of personality in Said Ahmad’s stories is closely connected with humanism, national values, and the criterion of conscience.

**Keywords:** short story, concept of personality, psychologism, artistic detail, moral choice, historical memory, national value.

O‘zbek nasrida inson shaxsi, uning ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabati masalasi doimo muhim badiiy-estetik muammo bo‘lib kelgan. XX asr va istiqloq davri nasrida bu muammo yanada murakkab tarixiy, axloqiy va psixologik mazmun kasb etdi. Aynan shu jarayonda Said Ahmad o‘zbek adabiyotida kichik nasr, ayniqsa hikoya janrining yuksak namoyandasi sifatida alohida o‘rin egallaydi [1].

Said Ahmad ijodida shaxs masalasi abstrakt falsafiy tushuncha sifatida emas, balki konkret insoniy taqdirlar, oilaviy rishtalar, vijdoniy sinovlar va tarixiy sharoitlar bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Adibning “Sarob”, “Qorako‘z Majnun”, “Oftob oyim” kabi hikoyalarida mustabid tuzum qoldirgan ruhiy jarohatlar, insoniylik mezonining yemirilishi va ma‘naviy bardoshlik masalalari badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilgan [2].

Adabiyotshunoslikda “shaxs konsepsiyasi” badiiy asarda insonning ruhiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy butunlikda talqin etilishiga daxldor nazariy kategoriyadir. Bu tushuncha qahramonni voqealar ishtirokchisigina emas, balki o‘z qarori, e‘tiqodi, xotirasi va mas‘uliyati bilan yashovchi ma‘naviy subyekt sifatida ko‘rishni taqozo etadi [6].

Said Ahmad ijodiga bag'ishlangan manbalarda, odatda, uning hajviy hikoyachilik mahorati, kichik nasrdagi yangiligi va tarixiy xotirani badiiy tiklashdagi xizmatlari alohida ta'kidlanadi [1;2]. Biroq yozuvchi hikoyalarida shaxs konsepsiyasining badiiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo'lishi maxsus umumlashtirilgan holda kamroq tahlil qilingan. Shu bois adib hikoyalarini aynan “shaxs – vijdon – tarixiy xotira – milliy qadriyat” munosabati asosida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Said Ahmad qahramonini yirik voqea markaziga majburan chiqarib qo'ymaydi, aksincha, u kundalik turmush ichidagi g'oyat oddiy vaziyatlar orqali inson mohiyatini ochadi. Yozuvchi uchun shaxsning haqiqiy mezoni mansab, kuch yoki tashqi muvaffaqiyat emas, balki mehr, sadoqat, sabr, or-nomus va vijdondir. Shu ma'noda Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasi etik-estetik mazmun kasb etadi.

Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasi, avvalo, ruhiy aniqlik va badiiy ixchamlik orqali yaratiladi. Adib uzoq tavsiflardan ko'ra, xarakter mohiyatini ochuvchi bitta detal, bir necha ishora, qisqa dialog yoki kutilmagan konfliktga tayanadi. Natijada qahramonning ichki dunyosi keng romandagi kabi batafsil emas, balki siqiq, lekin serqatlam shaklda namoyon bo'ladi. Bu hikoya janrining tabiati bilan ham, Said Ahmad uslubining o'ziga xosligi bilan ham bog'liq.

Yozuvchi qahramon ruhiyatini ko'rsatishda badiiy detal va ramziy obrazdan samarali foydalanadi. Ba'zan bir hayvon obrazi, bir nigoh, bir sukut, bir uy jihozi yoki esdalik buyumi qahramonning butun ma'naviy holatini anglatib turadi. Said Ahmadning hikoyachilik mahorati ham shundaki, u detalni tasviriy unsur darajasida qoldirmaydi, balki uni axloqiy-falsafiy ma'no yuklaydigan markaziy belgi sifatida ishlatadi.

Shaxs talqinining yana bir muhim jihati – muhit bilan aloqadorlikdir. Said Ahmad qahramonlari o'z oilasi, mahallasi, tarixiy davri va ijtimoiy bosimidan tashqarida mavjud emas. Shaxsning ichki dunyosi tashqi dunyodan uzilgan emas, aksincha, ijtimoiy muhit ruhiy holatni shakllantiradi, ba'zan uni yemiradi, ba'zan esa chiniqtiradi. Shuning uchun yozuvchi hikoyalarida individual psixologiya bilan ijtimoiy tarix bir-birini to'ldirib boradi.

“Qorako'z Majnun” Said Ahmad hikoyachiligida shaxs konsepsiyasi eng teran ifodalangan asarlardan biridir. Hikoyaning epigrafik qatlami Qur'on oyati va hadisi sharif bilan boshlangan bo'lib, asarga boshidanoq axloqiy-me'yoriy ohang beradi [3]. Demak, muallif voqeani faqat turmushiy hodisa emas, balki insoniylik mezonlari sinovdan o'tadigan ma'naviy makon sifatida quradi.

Asar Saodat ayaning kundalik hayotini tanishtirish bilan boshlanadi. Kampirning bomdoddan keyin vafot etgan eri, daraksiz qolgan o'g'li Bo'rixon va baxti ochilmagan qizi Qumri haqida duo qilishi hikoyada shaxs masalasi oilaviy xotira, ona iztirobi va umid bilan bog'liq holda qo'yilayotganini ko'rsatadi [3]. Bu o'rinda Saodat aya shunchaki mehribon ona emas, balki oilaviy butunlik yemirilgan zamonda ma'naviy tayanch vazifasini bajarayotgan shaxs obrazidir.

Qorako'z obrazi esa hikoyada sentimental vosita emas, balki axloqiy mezon vazifasini bajaradi. Kampirning kasalxonada yotgan paytida itning qorga ko'kragini berib darcha tagida kutib yotgani, uning sadoqati odamlar mehridagi uzilishlarni yaqqolroq ko'rsatadi [3]. Natijada hikoya o'quvchini tabiiy ravishda muhim savolga olib keladi: insoniylikning haqiqiy belgisi qaysi qahramonda mujassam – tashqi jihatdan “odam” bo'lganlarda yoki sadoqatni unutmagan mavjudotda?

Qumri obrazi orqali yozuvchi ayol qismati, yolg'izlik va oilaviy sinish fojeasini ochadi. Bo'rixonning begonalashuvi, Qumrining omadsiz hayoti va Saodat ayaning sabr-toqati bir hikoya doirasida turli shaxsiy taqdirnlarni jamlaydi. Shu bois “Qorako'z Majnun”da shaxs konsepsiyasi

yakka qahramon bilan emas, balki bir oilaning ma'naviy parchalanishi va shu parchalanish fonida saqlanib qolgan vijdon mezoni bilan talqin etiladi.

Asarning badiiy qudrati shundaki, unda shaxsning ma'naviy darajasi mansab, boyluk yoki ijtimoiy mavqe bilan emas, mehr, sadoqat va xotira oldidagi mas'uliyat bilan o'lchanadi. Demak, Said Ahmad bu hikoyada shaxsni biologik yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, avvalo axloqli inson sifatida talqin qiladi.

“Ot bilan suhbat” hikoyasi esa Said Ahmad hikoyachiligida ramziy-falsafiy yo'nalish kuchli namoyon bo'lgan asarlardandir. Manbalarda ushbu hikoya inson va hayvon o'rtasidagi samimiy munosabat, sadoqat, fidoyilik va insoniylik haqida fikr yurituvchi falsafiy hikoya sifatida baholanadi [5]. Bu baho asardagi shaxs konsepsiyasini talqin qilishda muhimdir.

Mazkur hikoyada ot obrazining qahramon maqomiga ko'tarilishi bejiz emas. Ot – xotira, sadoqat va sinov timsoli. Inson bilan ot o'rtasidagi ramziy muloqot tashqi voqeani emas, ichki eshitish madaniyatini ochadi: inson o'zidan boshqani eshita oladimi, o'z vijdoniga quloq sola oladimi, sadoqatning bahosini anglay oladimi? Shaxsning yetukligi aynan shu savollar orqali tekshiriladi.

Bu hikoyada Said Ahmad shaxsni ochishda antropomorfizmdan mahorat bilan foydalanadi. Ot shunchaki jonivor emas, balki tarixni, fidoyilikni, qadrsizlikni va insonning qarzdorlik hissini o'zida mujassam etgan obrazga aylanadi. Shunday qilib, hikoyadagi suhbat insonning o'zi bilan suhbat, yanada aniqrog'i, uning ma'naviy o'zagi bilan muloqoti darajasiga ko'tariladi. Natijada “Ot bilan suhbat”da shaxs konsepsiyasi nutq va muloqot madaniyati bilan bog'liq talqin qilinadi. Qahramonning kimligi uning nimalarni gapirishida emas, nimani his qilishi, nimalarga javobgarlik sezishi va sadoqatga qanday munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi.

“Azroil o'tgan yo'llarda” hikoyasi Said Ahmad nasrida tarixiy xotira va shaxs masalasi kesishgan nuqtani yorqin ifodalaydi. Hikoya sobiq sho'ro tergovchilari qo'lida azob chekkan yurtdoshlarga bag'ishlangani bilan ham, shaxs muammosini bevosita tarixiy adolatsizlik fonida qo'yadi [4]. Bu bag'ishlovning o'ziyoq asarning individual voqeadan umumxalq dardiga o'tishini anglatadi.

Hikoyada soxta guvohlik, yolg'on ayblov, zo'ravon tergov va hokimiyatning ma'naviy buzilish mexanizmlari ochib beriladi [4]. Bunday sharoitda shaxsning mohiyati ikki yo'l orqali ko'rinadi: biri zulmni amalga oshiruvchi ma'naviy tubanlashgan tip, ikkinchisi esa azob ostida ham oriyatini saqlab qolishga urinuvchi inson tipi. Yozuvchi ana shu qarama-qarshilik orqali shaxs konsepsiyasiga tarixiy-axloqiy mazmun beradi.

Asarda Jalol polvon obrazi alohida e'tiborga loyiq. Polvonlik, oriyat, uyat va insoniy mehr bilan yashagan avlod vakili sifatida u milliy xarakterdagi ijobiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Bunga qarama-qarshi tarzda ma'naviy yemirilishga uchragan, hokimiyatga tayangan, boshqalar taqdirini osonlik bilan sindiradigan kimsalar ko'rsatiladi [4]. Shu tariqa hikoyada faqat individual fojea emas, balki bir davrning axloqiy portreti yaratiladi.

Muhimi shundaki, Said Ahmad mazkur hikoyada shaxsni zulm qurboni sifatida biryoqlama ko'rsatmaydi. U qahramonning ichki bardoshi, uyat hissi, xotira bilan yashashi va adolat tuyg'usini ham ochadi. Demak, “Azroil o'tgan yo'llarda”da shaxs konsepsiyasi tarixiy jarohatni boshidan kechirgan, ammo o'zligini butunlay boy bermagan inson qiyofasida gavdalanadi.

Said Ahmad hikoyalarida shaxs jamiyatdan uzilgan holda tasvirlanmaydi. Oila, mahalla, tarixiy davr, urf-odat, diniy-axloqiy tasavvur va kollektiv xotira qahramon xarakterini belgilovchi asosiy omillardir. Shu sabab yozuvchi hikoyalarida shaxs konsepsiyasi individualizmga emas, mas'uliyatli ijtimoiylikka tayanadi. Biroq bu ijtimoiylik shaxsni so'ndiruvchi kuch sifatida emas,

balki uning ichki mezonlarini sinovdan o'tkazuvchi makon sifatida talqin qilinadi. Masalan, ona va farzand munosabati, urush va qatag'on xotirasi, yolg'izlik va sadoqat, mahalla nigohi hamda ornomus tushunchalari qahramonning ichki dunyosini belgilaydi. Shaxsning yetukligi ana shu tashqi bosimlar ichida o'z vijdonini yo'qotmaslik bilan o'lchanadi.

Said Ahmad hikoyalarida milliy qadriyatlar ham formal dekorativ unsur emas. Sabr, mehr-oqibat, vafodorlik, keksaga hurmat, oila sha'ni, oriyat kabi tushunchalar badiiy tizimning ichki mezoniga aylangan. Yozuvchi qahramonni shu qadriyatlarga munosabati orqali baholaydi. Shu ma'noda adib hikoyalaridagi shaxs konsepsiyasi milliy ruh bilan uzviy bog'liq, ammo tor maishiy doira bilan cheklanmaydigan umuminsoniy mazmunga egadir.

Ayniqsa, Said Ahmad uchun vijdon mezoni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Vijdon – shaxsning ichki qonuni, ma'naviy nazorati va erkinligidir. Qahramon mana shu ichki mezonga sodiq qolsa, u ma'naviy jihatdan yuksak shaxs sifatida gavdalanadi; unga xiyonat qilsa, tashqi qudratidan qat'i nazar, ma'naviy jihatdan tanazzulga uchragan timsolga aylanadi.

Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasini ochishda bir necha badiiy vosita yetakchi o'rin tutadi. Birinchidan, badiiy detal. Muallif ko'pincha qahramonning butun ruhiy holatini bir buyum, bir holat yoki bir harakatga jamlaydi. Masalan, “Qorako'z Majnun”da kampirning jaynamoz poyida qolishi, cho'ntagida emas, sochi uchiga osilgan kalit, itning yarador holati – bularning barchasi shaxs va taqdirning ichki manzarasini ochuvchi detallar sifatida ishlaydi [3].

Ikkinchidan, kontrast usuli. Yozuvchi ko'pincha sadoqat va befarqlikni, oriyat va ma'naviy tubanlikni, xotira va begonalashuvni qarama-qarshi qo'yadi. Shu yo'l bilan shaxsning asl mohiyati yanada ravshanlashadi. “Azroil o'tgan yo'llarda”da milliy oriyat timsoli bo'lgan obrazlar bilan zo'ravon tizim vakillari orasidagi qarama-qarshilik bunga yaqqol misoldir [4].

Uchinchidan, ramziy obrazlar tizimi. Qorako'z, ot, qabr, yo'l, darcha, duo, sukunat kabi obrazlar hikoyalarda bevosita mazmundan tashqari qo'shimcha ma'no yukini ham ko'taradi. Bu obrazlar orqali Said Ahmad qahramonning aytilmagan kechinmalarini, ichki og'riqlarini va axloqiy holatini bilvosita ifodalaydi.

To'rtinchidan, nutq individualligi va dialog. Said Ahmad qahramonlari bir-biriga o'xshab gapirmaydi. Har bir obrazning so'zlash ohangi, sukuti, murojaat shakli yoki kinoyasi uning ijtimoiy tajribasi va ruhiy maqomini bildirib turadi. Yozuvchi aynan shu vosita bilan qahramon xarakterining ichki qatlamlarini sun'iy psixologik tavsiflarsiz ochib beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Said Ahmad hikoyalarida shaxs konsepsiyasi ko'p qatlamli badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi shaxsni faqat individual psixologiya doirasida emas, balki tarixiy xotira, ijtimoiy bosim, oilaviy munosabat va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi.

“Qorako'z Majnun”da shaxs konsepsiyasi mehr, sadoqat va xotira oldidagi mas'uliyat mezoni orqali ochilsa, “Ot bilan suhbat”da u ichki eshitish, sadoqatni anglash va ma'naviy qarzdorlik hissi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. “Azroil o'tgan yo'llarda”da esa shaxs tarixiy zo'ravonlik sinovidan o'tuvchi, ammo vijdon va oriyatni saqlab qolishga intiluvchi ma'naviyati butun inson sifatida namoyon bo'ladi.

Said Ahmad hikoyachiligida shaxsning haqiqiy o'lchovi tashqi muvaffaqiyat emas, balki vijdon, mehr, sadoqat va insoniylikdir. Adibning badiiy olamida shaxsning ulug'ligi uning boshqalarga munosabati, xotirani asrash darajasi va ma'naviy tanloviga qarab belgilanadi. Shu jihatdan Said Ahmad hikoyalari nafaqat o'zbek hikoyachiligining yuksak namunasi, balki inson mohiyatini anglashga xizmat qiluvchi badiiy-falsafiy maktab sifatida ham qadrlidir.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Akadernashr, 2018.
2. Said Ahmad // [Arboblal.uz](http://Arboblal.uz): O‘zbekiston arboblari portali. URL: <https://arboblal.uz/uz/people/said-akhmad> (murojaat sanasi: 23.04.2026).
3. Said Ahmad. *Azroil o‘tgan yo‘llarda* (hikoya) // [Ziyouz.uz](http://Ziyouz.uz). 03.11.2013. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-azroil-o-tgan-yo-llarda-hikoya> (murojaat sanasi: 23.04.2026).
4. Said Ahmad. *Ot bilan suhbat* (hikoya) // [Ziyouz.uz](http://Ziyouz.uz); Mutolaa platformasi. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-ot-bilan-suhbat-hikoya> ; <https://mutolaa.com/uz/book/ot-bilan-suhbat> (murojaat sanasi: 23.04.2026).
5. Said Ahmad. *Qorako‘z Majnun* (hikoya) // [Ziyouz.uz](http://Ziyouz.uz). 02.04.2012. URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/said-ahmad/said-ahmad-qorakoz-majnun-hikoya/> (murojaat sanasi: 23.04.2026).
6. To‘xliyev B., Karimov B. *Adabiyot: 11-sinf uchun darslik*. 2-qism. – Toshkent, 2018.
7. Umurov H. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004.